



Activities of healthcare institutions in Khorezm during the years of Perestroika

Sirojbek ALLANAZAROV¹

Urgench State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2025
Received in revised form
15 July 2025
Accepted 25 July 2025
Available online
15 August 2025

Keywords:

medicine,
Khorezm region,
medical stations,
hospital,
"perestroika",
change,
village,
medical-obstetric stations.

ABSTRACT

This article analyzes the activities of healthcare institutions in Khorezm during the mid-20th century and examines the existing problems. Based on the analysis of relevant archival documents, the article evaluates the quality of medical services provided to the population during the "perestroika" years.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss7/S-pp199-202>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Qayta qurish yillarida Xorazmda sog'liqni saqlash muassasalarining faoliyati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

tibbiyot,
Xorazm viloyati,
vrachlik punktlari,
shifoxona,
"qayta qurish",
o'zgarish,
qishloq,
feldsherlik-akusherlik
punktlari.

Ushbu maqolada XX asrning o'rtalarida Xorazmda sog'liqni saqlash muassasalarining faoliyati, mavjud muammolar tahlil etilgan. Maqolada mavzuga aloqador arxiv hujjatlarining tahlili asosida "qayta qurish" yillarida aholiga ko'rsatilgan tibbiy xizmatning sifati baholangan.

¹ Independent Researcher, Urgench State Pedagogical Institute. E-mail: sirojbek.allanazarov@bk.ru

Деятельность учреждений здравоохранения в Хорезме в годы перестройки

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

медицина,
Хорезмская область,
врачебные пункты,
больница,
перестройка,
перемены,
село,
фельдшерско-акушерские
пункты.

В статье анализируется деятельность медицинских учреждений Хорезма в середине XX века, рассматриваются существующие проблемы. На основе анализа архивных документов по данной теме дается оценка качества медицинского обслуживания населения в годы перестройки.

1980-yillarning o'rtalariga kelib SSSR hukumati butun mamlakat hududida xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida islohotlar o'tkazish zaruriyatini tushunib yetdi. Chunki dunyoning globallashuvi tufayli G'arb tamoyillari bilan solishtirganda SSRning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlardagi mag'lubiyati tobora yaqqol namoyon bo'la boshlagan edi. Sovet hukumatining mafkuraga asoslangan siyosati va 5 yillik rejali boshqaruvi uzoq vaqt davomida fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lmagan. Bundan tashqari xalqning turli jabhalardan siqib qo'yilishi, mafkuraga asoslangan siyosatning soxtakorliklari birin-ketin oshkor bo'la boshlashi ham jamiyatni "qayta qurish" siyosatiga burishga zamin yaratdi.

1985-yilda KPSS Markaziy Qo'mitasining yangi Bosh kotibi M.Garbachov partiya plenumida so'zlagan nutqida sotsialistik boshqaruv shakllarini zamonaviy sharoit va ehtiyojlarga muvofiqlashtirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning sezilarli tezlashishiga erishish zarurligini e'lon qildi [1, c. 510]. Biroq Gorbachevning "qayta qurish" siyosati butun iqtisodiy tizimni tubdan o'zgartirish vazifasini emas, faqat jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda mavjud siyosatni yangilashni anglatar edi.

1980-yillarning o'rtalaridan boshlangan qayta qurish siyosati O'zbekiston SSR, xususan, Xorazm viloyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, ijtimoiy sohalar va madaniy hayotni qamrab oldi. Binobarin, uzoq yillar davomida sobiq sovet tuzumi milliy respublikalar madaniyatini deyarli inkor etib, mamlakatda yagona "sotsialistik madaniyat"ni shakllantirish borasida olib borgan g'ayri ilmiy madaniy siyosati madaniyatda ham ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida bo'lgani kabi tushkunlik, turg'unlik mexanizmini yuzaga keltirgan edi. Shu sababdan ham ta'lim, fan, madaniyat va san'at sohalarida qayta qurish, ya'ni mamlakat rahbariyatining ta'biri bilan aytganda, uning "rivojini jadallashtirish" kerak bo'ldi [2, B. 13].

Bu davrning xarakterli xususiyati shundaki, milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy sohada o'zgarishlar qilish tushunib yetilib, demokratik g'oyalar, matbuot va so'z erkinligi, madaniyatni tiklash uchun muayyan sharoit va imkoniyatlar yaratilgan bo'lishga qaramasdan, avvaldan davom etib kelayotgan kommunistik mafkura va u targ'ib qilgan g'oyalarning tazyiqi pasaymadi.

"Qayta qurish" davrida ham Xorazmda tibbiyot ancha muammoviy masalalardan biri bo'lib qolaverdi. 1984-yilning 11-sentabr kuni O'zbekiston SSSR Oliy soveti Prezidiumi Xorazm viloyatida onalar va bolalarga tibbiy yordam ko'rsatishning ahvoli

yuzasidan qaror qabul qildi. Qarorda Xorazm viloyati onalarga tibbiy yordam ko'rsatish darajasining pastligi, yosh bolalar salomatligini muhofaza qilish borasidagi ishlar qoniqarli darajada emas ekanligi tanqid etildi. Biroq bu davrga kelib, tibbiyotda avvalgi yillarga qaraganda bir qator o'zgarishlar ham sodir bo'ldi. XX asrning 80-yillari davomida birgina Hazorasp rayoni Markaziy shifoxonasida 9,5 million so'mlik kapital qurilish ishlari amalga oshirildi, zamonaviy davolash korpuslari ishga tushirildi. 240 o'rinlik tug'ruqxona, 360 qabulga mo'ljallangan poliklinika, terapiya, jarrohlik bo'limlari, 150 o'rinli Pitnak uchastka shifoxonasi, 10 dan ortiq vrachlik ambulatoriyalari, Sil kasalliklari dispanseri, tuman markaziy dorixonasi, rayon sanitariya-epidemiologiya stansiyalari ishga tushirildi. 150 bemorga mo'ljallangan yuqumli kasalliklar shifoxonasi kompleksi qurildi [3, B.164].

1985-yilga oid arxiv ma'lumotlarining guvohlik berishicha, Gurlan rayonida 591 o'rinli 3 ta kasalxona, 8 ta qishloq vrachlik ambulatoriyalari, 21 ta feldsherlik-akusherlik punktlari, 1 ta sanitariya-epidemiologiya stansiyasi, 3 ta poliklinika, 6 ta dorixona aholiga tibbiy xizmat ko'rsatgan [4]. Shu davrda Hazorasp rayonida 2 ta markaziy kasalxona, 53 ta bo'lim hamda feldsherlik-akusherlik punktlari faoliyat yuritgan [5]. 1985-yilning oxiriga kelib, viloyat bo'yicha 10 ta markaziy shifoxona, 3250 o'rinli 19 ta qishloq shifoxonasi, 43 ta qishloq vrachlik punkti, 305 ta feldsherlik-akusherlik punktlari aholiga xizmat ko'rsatgan. Ularning moddiy-texnik bazasi sezilarli darajada oshgan. Shuningdek, viloyatning Yangiariq va Yangibozor rayonlarining kasalxonalari 60 o'ringa, Bog'ot jarrohlik bo'limi, Yangiariq va Shovot tumanlarining tug'ruq bo'limlari kengaytirildi. Ko'rilgan choralar natijasida viloyat markaziy shifoxonasining umumiy sig'imi 355 o'ringa, uning rayonlardagi bo'linmalari bilan hisoblaganda 66,6 ming o'ringa ko'payib, davolash va diagnostika imkoniyatlari sezilarli oshdi. Tahlil qilinayotgan davrda qishloq joylarida aholi va tibbiyot muassasalarini dori-darmon bilan ta'minlash uchun 67 ta dorixona, 10 ta markaziy tuman dorixonasi, 266 ta dorixona punktlari faoliyat olib borgan [6]. Tahlil qilinayotgan davrda viloyatning qishloq joylarida 1308 nafar shifokor va 4692 nafar o'rta tibbiyot xodimlari faoliyat yuritayotgan edi [7]. O'zgarishlarga qaramasdan davolash muassasalarining ahvoli yetarli darajada emas edi. Ayniqsa, qishloq joylarida aholiga tibbiy xizmatning ahvoli past, shahar markazlaridagi kabi sharoitlar mavjud bo'lmagan. Kasalliklarni oldini olish, tashxis qo'yish, tibbiy asbob-uskunalarining yetishmasligi oqibatida bemorlarga tibbiy xizmatlarning o'z vaqtida ko'rsata olinmagan. Ekologik muammolar va boshqa omillar tufayli ona va bola salomatligini saqlashda ham jiddiy kamchiliklar kuzatilgan. Viloyatning Yangibozor, Urganch, Xiva, Hazorasp va Yangiariq tumanlarida chaqaloqlarning o'limlari yuqoriligicha qolgan [8].

1986-yilda Xiva shahar markaziy kasalxonasi va tuman markaziy kasalxonasi birlashtirilib, yagona tuman markaziy kasalxonasi tashkil qilindi. Oliy toifali shifokor, tibbiyot fanlari nomzodi Sh.D.Jumaniyozov Respublika Sog'likni saqlash vazirining buyrug'i bilan Xiva tuman markaziy kasalxonasi bosh shifokori vazifasiga tayinlandi. Bu vaqtda 225 o'rinli tuman markaziy kasalxonasi tasarrufida 200 o'rinli shahar kasalxonasi, 150 o'rinli bolalar kasalxonasi, 200 o'rinli tug'ruqxona, 75 o'rinli teri-tanosil kasalliklari dispanseri, 230 o'ringa ega silga qarshi kurash dispanseri, 100 bemor o'rniga ega "Guliston" va 50 o'rinli "Beruniy" uchastka kasalxonasi, markaziy poliklinika, bolalar poliklinikasi, tish davolash poliklinikasi, ayollar maslahatxonasi, vrachlik jismoniy tarbiya dispanseri, 27 ta FAP, 3 ta vrachlik sog'lomlashtirish punkti, sanitariya maorifi uyi kabi

tibbiyot muassasalari bo'lib, ulardagi o'rinlar soni 1230 tani, ambulatoriya poliklinika muassasalarining quvvati bir smenada 750 qatnovni tashkil qilar edi. Tumanda 220 nafar vrach va 1400 nafar o'rta malakali tibbiyot xodimlari faoliyat ko'rsatardi. Mavjud 8 ta kasalxonadan faqat 3 tasi tipovoy loyiha asosida qurilgan binoda joylashgan, qolgan 5 ta kasalxona, 8 ta ambulatoriya, poliklinika, 27 ta FAPlarning birontasi ham tipovoy binoga ega emas edi.

1986-yilgacha kasalxona urologiya bo'limining 2 ta palatasida ish yuritgan kasalxona ma'muriyati 1987-yilda maxsus binoga ko'chirildi va ma'muriyat xodimlari uchun zarur ish sharoiti yaratib berildi. Bu esa boshqaruv tizimini takomillashtirishda muhim rol o'ynadi [9, B. 130-132].

1987-yilda Yangiariq tumanida 60 o'rinli ikki qavatli davolash binosi ishga tushirildi va shu binoga ixtisoslashgan terapiya va jarrohlik bo'limlari joylashtirildi. Xirurgiyadan bo'shagan bo'lim yangidan ta'mirlanib, sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan darajada markaziy shifoxonaning anesteziologiya va reanimatsiya bo'limi tashkil qilindi [10, B.38]. Xonqa, Qo'shko'pir, Urganch tumanlarida stomatologiya poliklinikalari qurib foydalanishga topshirildi. Shu davrda viloyatda 204 nafar stomatolog faoliyat yuritgan [11].

Xulosa qiladigan bo'lsak, "qayta qurish" yillarida viloyatda sog'liqni saqlash muassasalarining faoliyati kengaydi. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun shifoxonalarning moddiy-texnik bazasi anchayin mustahkamlandi. Biroq shunday bo'lsa-da, tibbiyot Xorazmda muammoli sohalaridan biri bo'lib qolaverdi. O'z tanazzuli tomon yuz tutayotgan sovet rejimi qanchalik urinmasin xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yetarli darajada islohotlar o'tkazishga imkoni bo'lmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Горбачев М.С. Избранные речи и статьи. В 3-х томах. Т. 2, М.: Политиздат, 1987. – 510 с.
2. Мамажонов Д. С. Ўзбекистонда Қайта қуриш даврида маданий ҳаёт(1985-1991 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори автореф. – Т., 2018. – Б. 13.
3. Нуржонов К., Раҳмонов Х., Ёқубов Х. Хазорасп тарихи. – Урганч, Хоразм, 1998. – Б. 164.
4. О'зРА XVMA, 1-fond, 117-ro'yxat, 182-ish, 73-varaq.
5. О'зРА XVMA, 1-fond, 117-ro'yxat, 182-ish, 79-varaq.
6. О'зРА XVMA, 1-fond, 117-ro'yxat, 182-ish, 111-varaq.
7. О'зРА XVMA, 1-fond, 117-ro'yxat, 182-ish, 112-varaq.
8. О'зРА XVMA, 1-fond, 117-ro'yxat, 182-ish, 112-varaq.
9. Гойибов М., Жуманиёзов Ш., Абдурахмонов У. Хива тиббиёти: Хива шифохонасига 100 йил. – Т.: «Истиқлол нури, 2013. – 130-132.
10. Нуржонов К., Жуманиёзова Н. Янгиариқ тумани тарихи. – Хоразм, Хоразм нашриёти, 2011. – Б. 38.
11. О'зРА XVMA, 1-fond, 126-ro'yxat, 126-ish, 18-varaq.